

OILADA MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN TARBIYA JARAYONINING AMALIYOTDAGI HOLATI

Abdinazarova Bibiaysha Erkin qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Pedagogika nazariyasi va tarixi ta'lim

yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilada milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya jarayonining bugungi kundagi holati, uning yoshlar ma'naviy kamolotiga ta'siri hamda ushbu yo'nalishda mavjud muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili, kuzatish, suhbat va so'rovnoma metodlaridan foydalanildi. Natijalar oilada milliy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasida muhim omil bo'lib qolayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, globallashuv, internet tarmoqlari va oilaviy muloqotning qisqarishi kabi omillar milliy qadriyatlar asosidagi tarbiya samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi. Tadqiqot yakunida oilada milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyani takomillashtirish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: oila, milliy qadriyatlar, tarbiya, ma'naviyat, oilaviy muhit, yoshlar tarbiyasi, urf-odatlar, an'analar, milliy o'zlik, ma'rifat.

Kirish. Jamiyat taraqqiyoti va millat kelajagini belgilovchi asosiy omillardan biri yosh avlodning qanday tarbiya topayotganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ma'naviy yuksalishi va madaniy taraqqiyoti barkamol avlodni tarbiyalash darajasiga bog'liq bo'ladi. Barkamol avlod esa, avvalo, oilada voyaga yetadi. Shu sababli oila inson kamolotining birlamchi va eng muhim tarbiya maskani sifatida e'tirof etiladi. Oilada shakllangan ma'naviy muhit, axloqiy me'yorlar va qadriyatlar insonning butun hayoti davomida uning xulq-atvori hamda dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, madaniyatlararo integratsiyaning kuchayishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi yoshlar tarbiyasiga yangi talablarni qo'yimoqda. Bunday sharoitda milliy o'zlikni saqlash, tarixiy xotirani mustahkamlash va yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Chunki milliy qadriyatlar xalqning ma'naviy tayanchi, tarixiy xotirasi va madaniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi.

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarbiya tajribasi milliy qadriyatlar asosida shakllangan. Xalqimiz azaldan oila muqaddasligini ulug'lab kelgan. Oilada kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, sabr-toqat,

hayo va andisha kabi fazilatlar ustuvor ahamiyat kasb etgan. Ushbu qadriyatlar nafaqat oilaviy munosabatlarni tartibga solgan, balki jamiyatning ma'naviy taraqqiyotiga ham xizmat qilgan [2; 14-bet.].

Sharq mutafakkirlari ham oilaning tarbiyadagi o'rniga alohida e'tibor qaratganlar. Abu Nasr Forobiy komil insonni tarbiyalashda oilaning ahamiyatini alohida ta'kidlagan bo'lsa, Abu Ali ibn Sino farzand tarbiyasida ota-onaning shaxsiy namunasi muhimligini qayd etgan. Alisher Navoiy esa o'z asarlarida inson kamolotining asosiy mezonini sifatida odob, axloq va ma'naviyatni ko'rsatgan. Ushbu qarashlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Mamlakatimizda ham oilani mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasida oila institutini qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlar va yoshlar manfaatlarini himoya qilish hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Ushbu hujjatlarda yoshlarni ma'naviy barkamol, Vatanga sadoqatli va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [3; 35-bet.].

Shunga qaramasdan, bugungi kunda oilada milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya jarayonida ayrim muammolar ham kuzatilmoqda. Xususan, ota-onalarning ish bilan bandligi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning nazoratsiz ta'siri, kitobxonlik madaniyatining pasayishi, oilaviy muloqotning kamayishi kabi omillar yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada ayrim yoshlarda milliy qadriyatlarga befarqlik, individualistik qarashlarning kuchayishi va ma'naviy bo'shliq holatlari uchramoqda.

Mazkur holatlar oilada milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya jarayonining amaliy holatini chuqur o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada oilada milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya jarayonining bugungi holati, uning pedagogik ahamiyati hamda rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi [3; 45-bet.].

Tadqiqot metodlari. Mazkur maqolani tayyorlashda oilaviy tarbiya, milliy qadriyatlar va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalariga oid ilmiy manbalar tizimli ravishda o'rganildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini oila pedagogikasi, tarbiya nazariyasi, ma'naviyatshunoslik hamda sotsiologiya sohalarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning bir qator metodlaridan foydalanildi. Jumladan, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish metodi yordamida milliy qadriyatlar va oilaviy tarbiya masalalariga oid ilmiy qarashlar o'rganildi. Qiyosiy tahlil metodi orqali turli davrlarda oilaviy tarbiya mazmunida yuz bergan o'zgarishlar tahlil

qilindi. Kuzatish metodi asosida oilalarda uchrayotgan tarbiyaviy holatlar va amaliy tajribalar umumlashtirildi [6; 83-bet.].

Shuningdek, mavzuga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va konseptual hujjatlar ham tahlil qilindi. Tadqiqot davomida milliy qadriyatlarning oilaviy tarbiyadagi oʻrni, yoshlar maʼnaviy kamolotiga taʼsiri va zamonaviy ijtimoiy muhitning ushbu jarayonga taʼsiri oʻrganildi.

Tadqiqotning asosiy eʼtibori oilada milliy qadriyatlarni shakllantirishning amaliy mexanizmlari, tarbiyaviy imkoniyatlari hamda mavjud muammolarni aniqlashga qaratildi. Olingan maʼlumotlar mantiqiy tahlil va umumlashtirish asosida qayta ishlanib, ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqot natijalari. Oilada milliy qadriyatlarni shakllantirishda ota-onalarning shaxsiy namunasi alohida ahamiyatga ega. Farzandlar koʻpincha kattalarning nasihatlaridan koʻra ularning kundalik hayotdagi xatti-harakatlariga koʻproq eʼtibor beradilar. Ota-onalarning oʻzaro hurmat va mehr-muhabbat asosida munosabatda boʻlishi, mehnatsevarligi, halolligi va masʼuliyatliligi farzandlar uchun muhim tarbiyaviy omil boʻlib xizmat qiladi. Shu bois oilada shakllanadigan har bir munosabat kelajak avlodning maʼnaviy qiyofasiga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, oilalarda kitobxonlik anʼanalarining mavjudligi ham milliy qadriyatlarni shakllantirishning muhim omillaridan biridir. Ayniqsa, milliy adabiyot namunalarini mutolaa qilish orqali yoshlar xalqning tarixiy xotirasi, maʼnaviy merosi va madaniy qadriyatlari bilan yaqindan tanishadi. Buyuk mutafakkirlar va adiblar asarlarida ilgari surilgan axloqiy gʻoyalar yoshlarning maʼnaviy dunyosini boyitishga xizmat qiladi [6; 90-bet.].

Shuningdek, mahalla institutining oilaviy tarbiyadagi oʻrni ham muhim hisoblanadi. Mahalla qadimdan xalqimizning oʻziga xos ijtimoiy maktabi sifatida shakllangan boʻlib, unda hamjihatlik, mehr-oqibat va jamoaviylik qadriyatlari ustuvor hisoblangan. Mahalla tadbirlarida yoshlarning ishtirok etishi ularda fuqarolik masʼuliyati va ijtimoiy faollikning rivojlanishiga yordam beradi.

Biroq olib borilgan tahlillar ayrim salbiy tendensiyalar mavjudligini ham koʻrsatdi. Xususan, zamonaviy oilalarda ota-onalarning ish bilan haddan tashqari bandligi tufayli farzandlar bilan muloqot qilish uchun vaqt yetishmasligi kuzatilmoqda. Natijada ayrim hollarda yoshlarning maʼnaviy ehtiyojlari toʻliq qondirilmay qolmoqda. Bu esa tarbiya jarayonida turli muammolarning yuzaga kelishiga sabab boʻlmoqda.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi ham oilaviy tarbiya mazmuniga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. Bir tomondan, zamonaviy axborot vositalari bilim olish va dunyoqarashni kengaytirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Ikkinchi tomondan esa, nazoratsiz foydalanish natijasida ayrim yoshlarda yot madaniyatga qiziqish, milliy qadriyatlarga befarqlik va isteʼmolchilik kayfiyatining kuchayishi kuzatilmoqda.

Bugungi kunda ayrim oilalarda tarbiya jarayoni ko‘proq moddiy ta‘minot bilan bog‘lab talqin qilinayotganligi ham kuzatiladi. Holbuki, farzand tarbiyasida moddiy sharoit bilan bir qatorda ma‘naviy muhit ham muhim ahamiyatga ega. Oiladagi samimiy muloqot, mehr-muhabbat va o‘zaro hurmat muhitining mavjudligi yoshlarning ruhiy va ma‘naviy barkamolligini ta‘minlaydi [4; 64-bet.].

O‘rganilgan manbalar va amaliy kuzatishlar asosida shuni ta‘kidlash mumkinki, milliy qadriyatlarning oilada shakllanish darajasi bevosita oilaning ma‘naviy muhitiga bog‘liq. Ma‘naviy muhit sog‘lom bo‘lgan oilalarda yoshlar milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanadi, ijtimoiy mas‘uliyat hissi shakllanadi va ular turli salbiy ta‘sirga nisbatan mustahkam ma‘naviy immunitetga ega bo‘lib voyaga yetadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, oilaviy tarbiya jarayonida uchrayotgan muammolar quyidagi ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda:

1-jadval

Muammolar	Namoyon bo‘lish holati
Ota-onalarning bandligi	Farzand bilan muloqotning kamayishi
Internet va ijtimoiy tarmoqlar ta‘siri	Yot madaniyatga qiziqish ortishi
Kitobxonlikning pasayishi	Ma‘naviy bo‘shliq yuzaga kelishi
Oilaviy nazoratning sustligi	Tarbiyaviy ta‘sirning kamayishi
Milliy an‘analarning yuzaki qabul qilinishi	Qadriyatlarning mazmunan anglanmasligi

Natijalar milliy qadriyatlar oilaviy tarbiyada muhim o‘rin tutayotgan bo‘lsa-da, ularni zamonaviy sharoitga mos ravishda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatdi.(1-jadval)

Natijalar muhokamasi. Olingan natijalar oilaning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati bugungi kunda ham yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Oila shaxsning ma‘naviy shakllanishida asosiy ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritib, unda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an‘analar uzviy ravishda avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda.

Tadqiqot natijalari pedagogika va oila tarbiyasi sohasida faoliyat yuritgan olimlarning ilmiy qarashlari bilan hamohangdir. Xususan, oilada sog‘lom ma‘naviy muhit mavjud bo‘lganda yoshlarda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, fuqarolik mas‘uliyati va axloqiy fazilatlar samarali shakllanishi kuzatiladi. Bu holat oilaning tarbiyaviy salohiyati jamiyatning ma‘naviy taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, zamonaviy globallashuv jarayonlari oilaviy tarbiya oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Avvallari yoshlarning asosiy axborot manbalari oila, mahalla va ta‘lim muassasalari bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar ham kuchli ijtimoiylashuv vositasiga aylangan. Natijada yoshlarning dunyoqarashi turli manbalar ta‘sirida shakllanmoqda. [11; 89-bet.].

Globallashuvning ijobiy jihatlaridan biri shundaki, u yoshlarga zamonaviy bilimlarni egallash, xorijiy tajribalarni o'rganish va dunyo hamjamiyati bilan integratsiyalashish imkoniyatini yaratadi. Biroq ushbu jarayonning ayrim salbiy oqibatlari ham mavjud. Xususan, ommaviy madaniyatning nazoratsiz kirib kelishi ayrim yoshlarning milliy qadriyatlardan uzoqlashishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shu sababli oilada milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni zamonaviy talablar asosida tashkil etilishi lozim. Ota-onalar nafaqat an'anaviy tarbiya usullaridan, balki zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan ham samarali foydalanishlari zarur. Masalan, milliy tarix, madaniyat va adabiyotga oid elektron resurslardan foydalanish orqali yoshlarning qiziqishini oshirish mumkin.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlandi. Bu - oilaviy muloqot masalasidir. Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi samimiy muloqotning kamayishi tarbiya samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy texnologiyalar ko'pincha oila a'zolarining bir-biri bilan bevosita muloqot qilish vaqtini qisqartirmoqda. Natijada tarbiyaviy ta'sirning samaradorligi pasaymoqda.

Shuningdek, kitobxonlik madaniyatining pasayishi ham oilaviy tarbiya jarayonidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Kitob insonning ma'naviy dunyosini boyituvchi eng muhim vositalardan biri bo'lib, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar mujassamdir. Oilalarda kitob mutolaasiga e'tiborning kuchaytirilishi yoshlarning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi tarbiya samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biridir. Ushbu hamkorlik tizimli yo'lga qo'yilganda yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash imkoniyatlari kengayadi. Ayniqsa, mahallalarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni ko'paytirish va ularga yoshlarni faol jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, oilalarda bobo-buvilarning tarbiyadagi rolini kuchaytirish ham maqsadga muvofiqdir. Chunki ular xalqning ko'p yillik hayotiy tajribasi va ma'naviy merosining bevosita tashuvchilari hisoblanadi. Ularning hayotiy saboqlari yoshlar tarbiyasida muhim manba bo'lib xizmat qiladi [6; 123-bet.].

Umuman olganda, bugungi kunda milliy qadriyatlarni oilaviy tarbiya tizimida saqlab qolish va rivojlantirish uchun an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning uyg'unligini ta'minlash zarur. Bu esa yoshlarning ma'naviy barkamol, milliy o'zligini anglagan va zamonaviy bilimlarga ega shaxslar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, oila yosh avlodda milliy qadriyatlarni shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institut hisoblanadi. Milliy o'zlik, ma'naviy qadriyatlar va axloqiy fazilatlarining dastlabki asoslari oilada shakllanadi.

Ikkinchidan, o'zbek oilalarida milliy qadriyatlar asosidagi tarbiya an'analari bugungi kunda ham saqlanib qolgan bo'lib, ular yoshlarning ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutmoqda.

Uchinchidan, globallashuv, internet tarmoqlari va ota-onalarning bandligi milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

To'rtinchidan, oilada milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyani takomillashtirish uchun ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, oilaviy muloqotni rivojlantirish, kitobxonlik muhitini yaratish hamda oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligini kuchaytirish zarur.

Beshinchidan, milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan oilaviy tarbiya yoshlarni ma'naviy barkamol, Vatanga sadoqatli, mas'uliyatli va komil inson sifatida shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Musurmonova O. *Oila ma'naviyati va tarbiyasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
3. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. *Barkamol avlod tarbiyasi*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020.
4. Forobiy A.N. *Fozil odamlar shahri*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
5. Ibn Sino A.A. *Donishnoma*. – Toshkent: Sharq, 2018.
6. Navoiy A. *Mahbub ul-qulub*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2020.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
8. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
9. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2016.
10. Vohidov M. *Oila psixologiyasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
11. Nishonova Z. *Tarbiyaviy ishlar metodikasi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.